

BOSHLANG'ICH SINIF KO'PAYTIRISH JADVALINI O'RGANISH USULLARI

O'g'iloy Ismoilova Maxkambayevna

Toshkent shahar Uchtepa tumani 203-maktab

Boshlang'ich ta'lim

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ko'paytirish jadvalini o'rganish usullari, pifagor jadvalini avval oson va tushunarli qismlarini o'rganib chiqish, matematika darslarida turli kattaliklar qaraladigan ko'paytirish haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ko'paytirish jadvali, matematika darslari, o'rganish usullari, pifagor jadvali.

Kirish: Hozirgi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim sohasida yangidan-yangi qator qonunlar va hukumat qarorlari qabul qilinmoqda. Joriy yilning 8-may kuni «Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, har bir tumanda matematika fanini chuqurlashtirib o'qiishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ko'paytirish jadvali - matematikaning asosiy tushunchasi bilan boshlang'ich sinflarda o'rganib, unrimiz davomida undan foydalanib kelamiz. Lekin farzandlarimiz yodlashga unchalik ishtiyoqmand bo'lishavermaydi. Jadvalni yodlab olishdan avval uning mohiyatini tushunish kerak. Buning uchun ko'paytirish amalini qo'shish amaliga almashtirish lozim: bir xil sonlar nechiga ko'paytirilayotgan bo'lsa, shuncha marta qo'shib chiqiladi. Pifagor jadvali ko'paytirish amallarini bajarishda eng qulay vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ayrim qonuniylikni ham namoyish etadi. Masalan, ko'paytiruvchilarning o'rnini almashganligi bilan natija bir xil qolaveradi: $7*3=3*7$.

Bunday o'xshash javoblarni ma'lum bir ranglar bilan belgilab chiqing, belgilash yodda saqlab qolishga va adashib ketmaslikka yordam beradi.

Natijalar: Pifagor jadvalini avval oson va tushunarli qismlarini o'rganib chiqishdan boshlash kerak: 1,2,5 va 10 ga ko'paytirish. Son 1ga ko'paytirilsa, son o'zgarishsiz qoladi, agar 2ga ko'paytirilsa, son 2 baravar natija beradi. 5ga ko'paytirilganda ko'paytmaning oxiri 0 yoki 5 bilan tugaydi. 10ga ko'paytirilganda esa javobida ko'paytirilgan sonning yonida 0 bilan ikki xonali ko'rinishidagi son hosil bo'ladi.

Muhokama: O'rganilganlarni mustahkamlash maqsadida jadval uchun o'quvchilarga bo'sh Pifagor jadvalini chizib, uni to'ldirishni taklif qilish yaxshi natija beradi. Ko'paytirish jadvalni o'rganish jarayonida har bir o'quvchi o'rganishi uchun alohida yondashuv kerak, barcha uchun bir xil o'rganadigan yo'li yo'q. Asosiysi, o'quvchilarga jadvalni o'rganishni oson va qulay yo'lini topib qo'llash lozim.

Xulosa: Pedagogika kollejlari uchun matematika darslarida turli kattaliklar qaraladigan ko'paytirish hamda bo'lish bilan yechiladigan sodda masalalar ko'p. Bularning hammasi, odatda, ko'rgazmalilik asosida bajariladi. Bunda ko'paytirish bir xil qo'shiluvchilarning qo'shish amali sifatida talqin qilinadi, bo'lish esa ko'paytirishning teskari amali sifatida qaraladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bikbayeva N. U., Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T.: «O'qituvchi», 1996.
2. Ahmedov M ., Abdurahmonova N ., Jumaev M ., Ibragimov R. O'qituvchi kitobi. Birinchi sinf matematika darsligi uchun metodik qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol», 2008.
3. Jumayev M . Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
4. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum.—T.: «O'qituvchi», 2004.
5. Stoylava L. P., Pishkalo A. M . Boshlang'ich matematika asoslari. — T.: «O'qituvchi», 1991.